



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

PROCEDURAL FOUNDATIONS OF SEIZURE AND EXAMINATION OF DIGITAL EVIDENCE FROM MOBILE DEVICES

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Master’s student in Cyber Law Tashkent State University of Law, Uzbekistan

G-mail: gulnozashorasulova@gmail.com

Abstract: This thesis examines the procedural foundations of the seizure and examination of digital evidence from mobile devices on the basis of the Criminal Procedure Code as amended by Law No. O‘RQ-1003 of 21 November 2024, the Law “On Forensic Examination” No. O‘RQ-249, the Law “On Operational-Search Activities” No. O‘RQ-344, Cabinet of Ministers Resolution No. 778 of 17 September 2019, and other applicable normative legal acts. The scientific novelty of the research consists in the fact that, for the first time in national jurisprudence, the procedural chain of seizing and examining digital evidence from mobile devices is treated as a unified object of analysis and is subjected to comparative-legal study with international sources, including the Riley v. California (2014) case and the NIST SP 800-101 standard. The analysis has established the absence in national legislation of a unified procedural order for the seizure and forensic examination of mobile devices. Three practical proposals have been formulated to eliminate this legal gap: the introduction of a special provision into the Criminal Procedure Code, the adoption by the Cabinet of Ministers of a national methodological guide, and the harmonisation of the sanction regime through an interagency instruction.

Keywords: mobile device, digital evidence, seizure, forensic examination, CPC Article 95¹, CPC Article 204¹, specialist participation, IMEI, NIST SP 800-101.

**MOBIL QURILMALARDAN RAQAMLI DALILLARNI OLIB QO‘YISH
VA TADQIQ QILISHNING PROTSESSUAL ASOSLARI**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Kiber huquqi mutaxassisligi magistranti

G-mail: gulnozashorasulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdan mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilishning protsessual asoslari 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan kiritilgan o‘zgartirishlar asosida Jinoyat-protsessual kodeksi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-sonli Qonun, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-sentabrdagi 778-sonli qarori hamda amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar negizida tadqiq etilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, milliy qonunchilikda mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilishning protsessual zanjiri yagona tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqilgan hamda u xalqaro huquqiy manbalar Riley v. California (2014) ishi va NIST SP 800-101 standarti bilan komparativ-huquqiy tahlilga olib chiqilgan. Tahlil natijasida milliy qonunchilikda mobil qurilmalarni protsessual olib qo‘yish va kriminalistik tadqiq qilishning yagona tartibi belgilanmaganligi aniqlangan. Tesis doirasida mazkur huquqiy bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan uchta amaliy taklif shakllantirilgan: Jinoyat-protsessual kodeksiga maxsus norma kiritish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan milliy metodik qo‘llanma qabul qilish va idoralararo yo‘riqnomada sanksiya rejimini muvofiqlashtirish.

Kalit so‘zlar: mobil qurilma, raqamli dalil, olib qo‘yish, sud ekspertizasi, JPK 95¹-modda, JPK 204¹-modda, mutaxassis ishtiroki, IMEI, NIST SP 800-101.

Mobil qurilmalar zamonaviy jinoyat-protsessual faoliyatda eng ko‘p uchraydigan kriminalistik tadqiqot obyektlaridan birini tashkil etadi. Statistik ma’lumotlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmonida belgilanganidek, kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 49,6



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

foizni tashkil etadi va mazkur jinoyatlarning aksariyati mobil qurilmalardan foydalanish bilan bog‘liqdir. Bu holat mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilishning yagona protsessual tartibini joriy etishni taqozo etadi. 2024-yil 21-noyabrda qabul qilingan O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli dalillar institutining huquqiy asoslari kiritilgan. Mazkur islohot doirasida kodeksda elektron ma‘lumotlarni qabul qilish, raqamli dalillar tushunchasi va sertifikatlangan mutaxassis ishtirokining majburiyligi kabi yangi protsessual normalar joriy etilgan. Shu bilan birga, bu normalar elektron ma‘lumotlarning umumiy institutini belgilab beradi va mobil qurilmalarning maxsus xususiyatlarini hisobga oluvchi alohida protsessual tartibni o‘rnatmaydi. Ushbu holat huquqni qo‘llash amaliyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi to‘rt omilga asoslanadi. Birinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-sentabrdagi 778-sonli qarori bilan joriy etilgan mobil qurilmalarni IMEI kodi bo‘yicha ro‘yxatga olish tizimi ma‘muriy tartibga solish doirasida amal qiladi, biroq uning kriminalistik ahamiyati protsessual nuqtayi nazardan tahlil etilmagan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2019). Ikkinchidan, mobil qurilmalardan dalillarni olib qo‘yish bo‘yicha Jinoyat-protsessual kodeksining umumiy normalari (161-, 169-, 205-moddalar) mavjud bo‘lib, ularning mobil qurilmalarga tatbiq etilishi yagona tarzda belgilanmagan. Uchinchidan, sud ekspertizasi tartibi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-sonli Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-sonli qarori bilan belgilangan bo‘lsa-da, mobil qurilmalarga taalluqli maxsus metodika qabul qilinmagan (O‘zbekiston Respublikasi, 2010; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2023). To‘rtinchidan, xalqaro tajriba hisoblangan NIST SP 800-101 standarti va Riley v. California (2014) ishi milliy huquqiy tizimga moslashtirilmagan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Tadqiqotning maqsadi mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilishning amaldagi protsessual asoslarini tahlil etish, mavjud huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash va aniq amaliy takliflar shakllantirishdan iborat.

Mobil qurilmalar kriminalistikasining protsessual jihatlari xalqaro ilmiy adabiyotda alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllangan. NIST tomonidan ishlab chiqilgan SP 800-101 Rev.1 “Guidelines on Mobile Device Forensics” standarti soha uchun metodologik poydevor sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hujjat mobil qurilmalardan dalil olishning to‘rt bosqichli protsessual yondashuvini, ya’ni dastlabki muhofaza qilish (preservation), ma’lumotlarni ko‘chirish (acquisition), dalillarni tekshirish (yoki tahlil qilish, examination), ekspert xulosasini rasmiylashtirish (reporting)ni belgilab beradi (Ayers et al., 2014). Tadqiqotchi Casey esa raqamli dalillarning umumiy nazariy asosini ishlab chiqib, mobil qurilmalardan olinadigan ma’lumotlarning o‘zgaruvchanligi va metama’lumotlarga bog‘liqligini asoslagan. Sud amaliyoti nuqtayi nazaridan asosiy manba Amerika Qo‘shma Shtatlari Oliy sudining Riley v. California, 573 U.S. 373 (2014) ishidir. Mazkur ishda sud yagona ovoz bilan qabul qilgan qaroriga ko‘ra, hibsga olingan shaxsdan olingan mobil telefon ichidagi raqamli ma’lumotlarni ko‘rib chiqish uchun sud sanksiyasi majburiy hisoblanadi. Sud xulosasida zamonaviy smartfon o‘zining mazmuniga ko‘ra alohida protsessual rejimni talab etuvchi obyekt sifatida e’tirof etilgan (Supreme Court of the United States, 2014). Milliy qonunchilikda mobil qurilmalardan dalil olishning protsessual asoslari alohida tadqiqot mavzusi sifatida hozircha to‘liq ko‘rib chiqilmagan. 2024-yilda O‘RQ-1003-sonli Qonun qabul qilinishi bilan raqamli dalillar instituti shakllanish bosqichida bo‘lib, mobil qurilmalarga oid maxsus tadqiqotlar esa juda sanoqli. Ushbu ilmiy bo‘shliq tezisning ilmiy yangiligini asoslaydi. Tadqiqotda quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanilgan. Qiyosiy-huquqiy usul milliy normalar hamda xalqaro huquqiy manbalarni qiyoslash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

hujjat tahlili usulidan Jinoyat-protsessual kodeksining 81-, 87-, 88-, 95¹-, 161-, 169-, 204¹-, 204²-, 205-moddalari, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-sonli Qonun, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonun, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-1015-sonli Qonun, Vazirlar Mahkamasining 778- va 73-sonli qarorlari hamda xalqaro hujjatlar (NIST SP 800-101, Riley v. California) matnlarini chuqur o‘rganish uchun foydalanilgan. Protsessual zanjirning ichki tarkibiy elementlarini aniqlashda tizimli-strukturaviy tahlil, yangi huquqiy normalar taklifini shakllantirishda esa yuridik-konstruktiv usul qo‘llanilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi ikkinchi qismida (2024-yildagi tahririda) raqamli dalillar rasmiy dalil turi sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib: “Bu ma‘lumotlar... ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar... bilan aniqlanadi” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 81-modda 2-qism). Mazkur norma mobil qurilmalardan olinadigan ma‘lumotlarning protsessual maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi asos hisoblanadi. Kodeksning 204¹-moddasiga muvofiq, elektron ma‘lumotlar - “elektron qurilmalardan va axborot tizimlaridan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yaratiladigan, ishlov beriladigan hamda saqlanadigan ma‘lumotlar” sifatida belgilanadi (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 204¹-modda 1-qism). 204²-moddada raqamli dalillar tushunchasi belgilanib, unga elektron tarzdagi fayllar, audio va videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog‘ida saqlanayotgan ma‘lumotlar va boshqa elektron ma‘lumotlar kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 204²-modda 1-qism). Mobil qurilmaning maxsus identifikatsiyasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-sentabrdagi 778-sonli qarori bilan tartibga solinadi. Mazkur qarorga muvofiq, har bir mobil qurilma xalqaro mobil qurilmalar identifikatori 15 raqamdan



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

iborat IMEI kodi bilan ta’minlanadi va majburiy ro‘yxatga olinadi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2019). 2020-yil 31-dekabrda 828-sonli qarori bilan mazkur tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2020). Kriminalistik tahlil nuqtai nazaridan IMEI tizimi mobil qurilmaning kelib chiqishi, egasi va ulanish tarixini aniqlash uchun fundamental huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Mobil qurilmalarni olib qo‘yish Jinoyat-protsessual kodeksining bir nechta normalari asosida amalga oshiriladi. Birinchi huquqiy asos bu 161-modda doirasidagi tintuv hisoblanadi. Mazkur norma asosida turar joydan, ish joyidan yoki shaxsdan mobil qurilma olib qo‘yiladi. Ikkinchi huquqiy asos 205-moddadir, unda ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni olish usullarini birlashtirilgan tarzda quyidagilar belgilangan: “Ashyoviy, yozma va raqamli dalillar sifatida foydalaniladigan narsalar, hujjatlar, elektron ma’lumotlar... olib qo‘yish, tintuv yoki eksperiment o‘tkazish chog‘ida olinishi mumkin” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 205-modda). Telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish va ular orqali uzatiladigan axborotni olishga taalluqli normalar alohida tartibga solinadi. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonunning 122-moddasiga muvofiq, mazkur tadbir maxsus texnik vositalardan foydalangan holda olib boriladigan so‘zlashuvlarni, shu jumladan uzatiladigan matnli, grafik va multimedia axborotini nooshkora eshitib turish, tutib qolish va qayd etishdan iborat (O‘zbekiston Respublikasi, 2012, 122-modda). Mazkur qonunning 161-moddasiga muvofiq, telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishga prokuror sanksiyasi asosida yo‘l qo‘yiladi (O‘zbekiston Respublikasi, 2012, 161-modda). Kodeksning 88-moddasi beshinchi qismida (2024-yildagi tahririda) olib qo‘yiladigan elektron ma’lumotlarni rasmiylashtirish tartibi belgilangan: “Tergov yoki sud harakatlari



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

jarayonida olib qo‘yiladigan narsalar, hujjatlar va elektron ma‘lumotlar tegishli bayonnomalarda aniq ko‘rsatilishi kerak... ishga aloqasi bo‘lmagan narsalar, hujjatlar va elektron ma‘lumotlar qonuniy egasiga darhol qaytarilishi kerak. Bunda... ular qayta tiklanmaydigan tarzda yo‘q qilinishi lozim” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 88-modda 5-qism). Mazkur norma proporsionalitet prinsipini protsessual darajada amalga oshirishga qaratilgan. Olib borilgan tahlil natijasida amaldagi normalarning umumiy yo‘nalishli normalarni tashkil etishi, biroq mobil qurilmalarni olib qo‘yishning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni tarmoqdan izolyatsiya, masofadan o‘chirishni oldini olish, shifrlash mexanizmlari bilan ishlash hisobga olinmaganligi aniqlangan.

Mobil qurilmadan olingan raqamli dalillarni tadqiq qilish sud ekspertizasi sifatida amalga oshiriladi va “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-249-sonli Qonun bilan tartibga solinadi (O‘zbekiston Respublikasi, 2010). Mazkur qonun sud ekspertizasi tushunchasini, ekspertning huquq va majburiyatlarini, ekspertiza xulosasiga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom” sud ekspertizasi muassasalarining faoliyat tartibini belgilab beradi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2023). Mazkur nizom davlat va nodavlat sud-expertiza muassasalarining vakolatlarini, advokatning ekspertizadan o‘tkazish so‘rovi tartibini va xulosani sudga taqdim etish qoidalarini o‘z ichiga oladi. Mobil qurilmadan raqamli dalillarni tadqiq qilishning maxsus protsessual rejimi quyidagi normalar kompleksi bilan belgilanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 204²-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq: “Raqamli dalildan ko‘chirma nusxa olishga, basharti uning yaxlitligi va aynan o‘xshashligi saqlansa, yo‘l qo‘yiladi” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

protsessual kodeksi, 2024, 204²-modda 2-qism). Mazkur norma mobil qurilmadan olingan ma’lumotlarning butlanish prinsipini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Kodeksning 204²-moddasi uchinchi qismi raqamli dalilning aslini saqlash zarurligini belgilab beradi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda mobil qurilmalarga oid maxsus ekspertiza metodikasi qabul qilinmaganligi aniqlandi va bu protsessual bo‘shliq sifatida e’tirof etiladi.

Mobil qurilmalardan dalil olishning protsessual rejimida mutaxassis ishtiroki markaziy o‘rin egallaydi. Jinoyat-protsessual kodeksining 204¹-moddasi uchinchi qismiga muvofiq: “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taqdim etilgan elektron ma’lumotlarni mutaxassis ishtirokida qabul qilib oladi hamda elektron ma’lumotlar mavjud bo‘lgan birlamchi elektron jismlarni ko‘zdan kechiradi” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 204¹-modda 3-qism). Mutaxassis ishtirokining majburiyligi 95¹-moddaning to‘rtinchi qismi bilan sanksiya darajasida ta’minlangan: “Olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish bo‘yicha tergov harakatlari olib borilayotganda mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma’lumotlar nomaqbul dalillar deb topiladi” (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024, 95¹-modda 4-qism). Mazkur ikki norma birgalikda mutaxassis ishtiroki prinsipini protsessual kafolat sifatida belgilab beradi. Mutaxassislarni tayyorlash va sertifikatlash bilan bog‘liq normativ baza Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-iyuldagi 479-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PQ-17-sonli qarori bilan belgilangan. Mazkur normalar raqamli kriminalistika sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etadi. Shu bilan birga, mobil kriminalistika bo‘yicha alohida ixtisoslik joriy etilmagan, bu soha rivojlanishining keyingi bosqichi uchun masala sifatida qaraladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

NIST SP 800-101 Rev.1 standartida belgilangan to‘rt bosqichli protsessual yondashuv quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi (Ayers et al., 2014): preservation - qurilmaning izolyatsiyasi, Faraday paketiga joylashtirish va masofadan o‘chirishni oldini olish, acquisition - mantiqiy yoki fizikaviy nusxa olish, xesh qiymatni hisoblash, examination - foydali ma’lumotlarni ajratish, reporting - xulosaning shaffof va takrorlanuvchan tarzda taqdim etilishi. Mazkur metodologiya xalqaro miqyosda tan olingan standart hisoblanadi. Riley v. California (2014) ishida Amerika Qo‘shma Shtatlari Oliy sudi to‘rtta protsessual qoidani belgilagan (Supreme Court of the United States, 2014): birinchidan, zamonaviy mobil qurilma alohida protsessual rejimni talab etuvchi obyekt sifatida e’tirof etilgan; ikkinchidan, hibsga olish chog‘idagi tintuv istisnosi mobil qurilmaning raqamli mazmuniga taalluqli emas deb belgilangan; uchinchidan, mobil qurilmadagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish uchun sud sanksiyasi majburiy hisoblanadi; to‘rtinchidan, faqat ehtimoliy xavf yoki dalilning yo‘q qilinishi xavfi mavjud bo‘lgan istisno hollarda sanksiyasiz harakatga yo‘l qo‘yiladi. Milliy qonunchilikda mazkur xalqaro standartlar to‘liq aks ettirilmagan. Jinoyat-protsessual kodeksining 204²-moddasi ikkinchi qismidagi raqamli dalilning yaxlitligi va aynan o‘xshashligi haqidagi norma NIST standartining xesh qiymat talabi bilan tipologik bog‘lanish hosil qiladi, biroq texnik mexanizm aniq belgilanmagan.

Olib borilgan tahlil natijasida uchta asosiy protsessual muammo aniqlangan. Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksida mobil qurilmalarga oid yagona protsessual modda mavjud emas. Amaldagi normalar (161-, 169-, 204¹-, 204²-, 205-moddalar) umumiy konseptual asos beradi, biroq mobil qurilmaning o‘ziga xos xususiyatlarini (tarmoqdan izolyatsiya, shifrlash, masofadan o‘chirish xavfi) hisobga olmaydi. Ikkinchidan, mobil qurilmalardan dalil olishda sanksiya rejimi noaniq xarakterga ega, ya’ni telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish prokuror



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

sanksiyasi asosida amalga oshiriladi (O‘RQ-344, 161-modda), biroq mobil qurilma ichidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish uchun aniq sanksiya darajasi belgilanmagan. Uchinchidan, mobil qurilmalardan olingan raqamli dalillarni tadqiq qilish bo‘yicha milliy metodika qabul qilinmagan. Bu Vazirlar Mahkamasining 73-sonli qarori bilan tasdiqlangan umumiy nizom doirasida tartibga solinadi, biroq mobil kriminalistikaning maxsus talablari aks ettirilmagan.

Olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan raqamli dalillar instituti mobil qurilmalardan dalil olish uchun umumiy huquqiy ramka yaratgan, biroq mobil qurilmalarning maxsus protsessual rejimini belgilamagan.

Ikkinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 95¹-moddasi to‘rtinchi qismi va 204¹-moddasi uchinchi qismi mutaxassis ishtiroki prinsipini protsessual kafolat darajasida belgilab bergan; mazkur normalar mobil qurilmalardan dalil olish jarayoniga ham qo‘llaniladi.

Uchinchidan, xalqaro tajribadagi NIST SP 800-101 standarti va Riley v. California (2014) ishi mobil qurilmalarning maxsus protsessual rejimini taqozo etadi va milliy huquqiy doiraga moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

Birinchi taklif. Jinoyat-protsessual kodeksiga 205¹-modda “*Mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilishning maxsus tartibi*” nomi ostida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur modda quyidagi qoidalarni o‘z ichiga olishi lozim: birinchidan, mobil qurilmani olib qo‘yish va undagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish uchun sud sanksiyasi majburiyligi; ikkinchidan, qurilmaning tarmoqdan izolyatsiyasi va masofadan o‘chirishni oldini olish bo‘yicha texnik talablar;



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

uchinchidan, sertifikatlangan mutaxassis ishtirokining konkret tartibi va xesh qiymat hisoblashning majburiyligi.

Ikkinchi taklif. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan NIST SP 800-101 standarti asosida “*Mobil qurilmalardan raqamli dalillarni olib qo‘yish va tadqiq qilish bo‘yicha milliy metodik qo‘llanma*” qabul qilinishi lozim. Mazkur qo‘llanma to‘rt bosqichli protsessual yondashuvni, ya’ni *preservation* → *acquisition* → *examination* → *reporting*ni milliy sharoitga moslashtirishi nazarda tutiladi. Qo‘llanmaning ishlab chiqilishi 2024-yil 21-iyundagi PQ-229-sonli qaror bilan tashkil etilgan Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutiga yuklatilishi tavsiya etiladi.

Uchinchi taklif. Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi qo‘shma yo‘riqnomasi bilan mobil qurilmalardan dalil olishda sanksiya rejimini muvofiqlashtirishi lozim. Xususan, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonunning 161-moddasi bo‘yicha prokuror sanksiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksining 169-moddasi bo‘yicha sud sanksiyasi o‘rtasidagi muvofiqlik mexanizmi aniqlanishi zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlarda mobil qurilmalarga oid sud amaliyotining shakllanishi, bulutli xizmatlarga sinxronlashtirilgan ma’lumotlarning protsessual maqomi, shifrlangan ma’lumotlarni dekodlash bilan bog‘liq protsessual masalalar va voyaga yetmaganlarning mobil qurilmalaridan dalil olishning maxsus tartibi alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Ayers, R., Brothers, S., & Jansen, W. (2014). Guidelines on mobile device forensics (NIST Special Publication 800-101 Revision 1). National Institute of Standards and Technology. <https://doi.org/10.6028/NIST.SP.800-101r1>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

2. Casey, E. (2011). Digital evidence and computer crime: Forensic science, computers, and the internet (3rd ed.). Academic Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi. (2010, iyun 1). Sud ekspertizasi to‘g‘risida (O‘RQ-249-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2012, dekabr 25). Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida (O‘RQ-344-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
5. O‘zbekiston Respublikasi. (2019, iyul 2). Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida (O‘RQ-547-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
6. O‘zbekiston Respublikasi. (2022, aprel 15). Kiberxavfsizlik to‘g‘risida (O‘RQ-764-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
7. O‘zbekiston Respublikasi. (2024a, dekabr 27). Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida (O‘RQ-1015-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
8. O‘zbekiston Respublikasi. (2024b, noyabr 21). O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘RQ-1003-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (1994, sentabr 22). O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi [2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003 bilan o‘zgartirishlar bilan]. Lex.uz. <https://lex.uz/>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, iyun 21). Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-229-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, yanvar 22). Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-17-sonli qaror).

Lex.uz. <https://lex.uz/>

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026a, fevral 16). Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-21-sonli Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/>

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019, sentabr 17). O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanilayotgan, sotish yoki shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan va ishlab chiqariladigan mobil qurilmalarni ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida (778-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020, dekabr 31). O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanilayotgan, sotish yoki shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan va ishlab chiqariladigan mobil qurilmalarni ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida (828-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, fevral 21). Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida (73-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>

16. Supreme Court of the United States. (2014). Riley v. California, 573 U.S. 373.

17. Vexov, V. B. (2016). Elektronnye dokazatelstva: problemy teorii i praktiki [Electronic evidence: Problems of theory and practice]. Pravoporyadok: istoriya, teoriya, praktika, 4(11), 46–50.